

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 27 (66308)
2001 yil 6 iyul, juma

Sotuvda erkin narxda

MUALLIFI - TENGDOSHLARIMIZ

Yil boshida sinfimiz uchun uch, to'rt dona «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lgan edik. O'qish davrida gazetamizni navbatma-navbat uyimizga olib borib o'qirdik.

Ayni ta'vil kunlarida esa gazetaning har bir sonini kuzatib borish biroz qiyinchilik tug'dirayapti. Shuning uchun yilning ikkinchi olti oyiga o'zim obuna bo'ldim.

Hozirda «Tong yulduzi» uyimizga o'z vaqtida kelayapti. Uni mazza qilib o'qiyapman. Ma'qul bo'lgan maqola-yu she'rlarga qayta-qayta ko'z yugurtiraman.

Mening bunchalik berilib o'qiyotganimni ko'rgan oyim va dadam ham qiziqib qolishdi. Boshqotirma-yu topishmoqlarni birgalikda hal qilayapmiz.

Yangi 2002 yil uchun obuna mavsumi yaqinlashayotganini eshitib, tengdoshlarimga albatta «Tong yulduzi»ga yoziling, -deyapman. Obunachilari ko'p gazetani o'qish yanada yaxshi-da! Chunki «Tong yulduzi»ning mualliflari asosan tengdoshlarimizdir.

Mansur UMAROV,
Chirchiq shahridagi
12-maktab o'quvchisi.



VAQT TIG'IZ, QADRLAGAN AZIZ

Vaqtning asiriga aylangan soat uddaburon qo'lchalari bilan fursatni «yig'ishtirib» boraveradi. Fursat esa inson ko'zini shamg'alat qilib, sekund, daqiqa, soat, kun ko'rinishida o'tkinchi damlarni ko'rsatib, odimlayveradi.

Natijada qarabsiz-ki vaqt o'tadi. Shu zaylda zaminimizga «atak-chechak» qilib yangi yil va yillar ketidan asr ham kirib keladi. O'tgan damlarga nazar tashlasak, kimdir vaqtdan unumli foydalanib oldi va kimlardir esa... afsuski, vaqtlarini boy berishdi.

O'tgan vaqtdan umidini uzganlar endi o'tayotgan vaqtdan najot kutib yashayveradi. Buni qarang-ki, vaqt aylanib yil almashish fursati yetib kelganda (ya'ni, yangi yil) vaqtdan «yutganlarga» nisbatan «yutqazganlar» o'sha damda yangi yilni tantanavor ravishda kutib oladilar. Ta'bir joiz bo'lsa, ko'p qadar yuqori darajada endi, deyarli barchani hayratga solayotgan sarlavhadagi jumlagi izoh bersam.

Vaqt o'tib borayotganini sezmayotganlar uchun vaqt juda sekin odimlayotgandek tuyuladi, ularning nazarida. Binobarin, shunday ekan oddiy o'quvchi tilidan shuni ayta olaman-ki, bu kabi achchiq haqiqat boshqalarga nisbatan, afsuski bizning safdosh, tengdosh va zamondoshlarimiz orasida talaygina uchrayapti.

Achinarli jihati shunda-ki, bu kabi holatlar bizga oddiydek bo'lib tuyulib qolgan. Vaholan-ki, tengdoshlarimizning

ayni bilim oladigan fursatlarida ko'chalarning, shaharlarning chekka-chekkalaridagi turli xil kompyuter o'yinlariga tobora qiziqib borishlari ularning o'qishlariga katta to'sqinlik qilib qo'ydi. Yana ularning qo'llariga qarab: «Hali vaqtim bor ekan», deyishlaridan go'yo qo'llariga soatni emas, vaqtni zanjirband qilib qo'ygandek, nazarimda. Agar ular shu zaylda asosiy vaqtlarini o'tkazaversalar, natija barchaga oydek ravshan.


Biz yoshlar bir jumlani yodimizdan chiqarmasligimiz kerak. Kelayotgan porloq kelajak, faqatgina o'qiganlar, ilm olganlar zamonasi bo'lishini barchamiz bilib olishimiz va hozirdan shuning harakatida bo'lmog'imiz darkor.

Zotan, kelajakni porloq qilib, yurtimiz ravnaqini ko'tarish - xalq umid qilib turgan biz yoshlardan: ya'ni

sizdan,
mendand,
undan,
hammamizdandir.

Shunday qilib, yurt ishonchini oqlash va eng asosiysi, hozirgi yaratib berilgan yetarli shart-sharoitlardan to'g'ri va unumli foydalanish barcha ilmga chanqoqlarga nasib etsin!

Jamshiddin UMRZOQOV,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis San'at
litseyining 9- «A» «suxandon»
guruhi o'quvchisi.



VATANGA KERAKMIZ, VATANGA

Barchamiz bir daraxt, bir ildiz,
Quyoshdek yoniqmiz, chaqinmiz.
Xoh olis, xoh uzoq, yaqinmiz,
Vatanga kerakmiz, Vatanga!

Zaminu osmonlar bizniki,
Gullagan bo'stonlar bizniki.
Bu Vatan meniki, sizniki,
Vatanga kerakmiz, Vatanga!

Yurakka yaqindir bu tuproq,
Bizniki har giyoh, har yaproq.
Hammaga kerakmiz, lek ko'proq,
Vatanga kerakmiz, Vatanga!

Bu Vatan tirkakdir biz uchun,
Askarlar sergakdir biz uchun.
Yodingda saqlagin tunu kun,
Vatanga kerakmiz, Vatanga.

Yursinoy XOLMATOVA,
Farg'ona viloyati
Uchko'prik tumanidagi
20-o'rta maktab o'quvchisi.

Yetakchilarimiz

Sizga ularning nomi tanish. Ular - Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi 3-o'rta maktabning yetakchilari Hayotxon Haydarova va Turdivoy Xolmirzayevlardir.

- Bola boshidan deganlaridek, o'rta maktabda o'qib yurgan chog'larimdan o'q yetakchimiz. Matlubaxonni yaxshi ko'rar edim.

Uning bolalar bilan doim yonib gaplashishi, sinfda biror bir yangilik bilan to'satdan paydo bo'lib qolishini biz intiqlik bilan kutardik. Maktabda o'tkaziladigan har bir tadbir, tanlovlar tashabbuskor tashkilotchisi ham Matluba opa Abdurahmonova bo'lardi. Nihoyat, maktabni bitirdimu hech ikkilanmay Asaka shahriga, yetakchilar tayyorlash kursiga o'qishga kirdim. O'qishni tugallab, to'ppa-to'g'ri 3-maktabga qaytib yetakchilik qila boshladim. Dastlab, bu ish menga ancha og'irdek tuyuldi. Negaki, bolalar har xil. Birov senga quloq soladi, birov esa yo'q. Men sabr bilan ish boshladim. O'z opamizday meni ham bolalar

sevishini juda-juda istardim, -deb hikoya qiladi Hayotxon o'zi haqida.

Maktabning ikkinchi yetakchisi Turdi Xolmirzayevdir. U maktabning nafaqat yetakchisi, balki ustasi, rassomi, bezakchisi, musiqa sozlovchisi hamdir. Uningsiz biron - bir tadbir mazmunli o'tmaydi.

- Yetakchi, -deydi u, - tajribali, bilimdon, ishbilarmon bo'lsagina doim o'quvchilar uning

aytganini qiladi. Buning uddasidan chiqolmagan yetakchi o'z ishi bilan xayrlashgani ma'qul. U albatta, bolalarning eng yaqin o'rtog'i, sirdoshiga aylanishi lozim.

Maktabda kechgacha o'quvchilar bilan ishlash, turli tadbirlarni o'tkazish oson ish emas. Direktor yoki o'rinbosar biron kun bo'lmay qolishi mumkin. Biroq, yetakchilar o'rni darrov bilinib qoladi. O'quvchilargina emas, hatto o'qituvchilar ham ularga qattiq bog'lanib qolganlar. Ayniqsa, bosh yetakchi Hayotxonning yoshi qirqlardan oshgan bo'lsa ham, bolalarning hamon «opajon»isi. Tuman, viloyat maktablari yetakchilari anjumanlari ko'pincha

maktabda rejalashtirilib, ko'pchilik ish o'rgangani keladi. Ko'rik musobaqalarda g'oliblikka erishayotgan o'quvchilarning muvaffaqiyatlari sabablarini surishtirishadi.

Darhaqiqat, yetakchilar o'z ishlarini O'zbekiston bolalar va o'smirlar tashkilotining Nizomi asosida qurganlar. Yaxshigina jihozlangan o'z ish xonalariga ega. Ularning tajribalari Respublika miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilgan.

-Endigina ish boshlab, yetakchi vazifasida faoliyat yurgizayotgan o'z hamkasblarimizga izlaning, o'z sohangizning bilimdoni bo'ling, bolalar bilan ishlashdan charchamang. Zero, yutuqqa faqat irod, sabot bilan ishlash orqaligina erishiladi, degimiz keladi, - deydi Hayotxon va Turdivoy.

Umida YUSUPOVA,
Andijon viloyati,
Buloqboshi tumani 3- maktab.



YUTUQLAR IZLANISHIGA BOG'LIQ

QISHLOG'INGIZ NOMI NEGA...

Men Qashqadaryo viloyatining so'lim qishloqlaridan biri - Qo'yioqboy qishlog'i haqida so'z ochmoqchiman. Bu qishloq serviqor tog'lar qo'ynida joylashgan. Qishloqning o'rtasidan Qashqadaryo oqib o'tadi. YAqinda hamqishlog'imiz bir keksa otaxon bilan suhbatda bo'ldim. Uning aytishicha, dastlab qishlog'imiz o'rni keng lalmikor yerlarga tutashgan qarovsiz, tashlandiq yer bo'lgan ekan. Bu yerda ikki aka-uka boylar yashagan bo'lib, ularning juda ko'plab oppoq rangli qo'ylari bo'lgan ekan. Bir kuni oradan gap qochib aka-ukalar urushib qolishibdi. Aka qishloqni tashlab, yuqoriroq tomonga ko'chib ketibdi. Umri tugab, o'limi oldidan ukasiga shunday vasiyat qilibdi, «men bu yerlarda shuncha yashab, keksayib qolganimni ham sezmay qolibman. Yoshim senikidan kattaroq bo'lgani uchun bu yerlarni «YUqorioqboy» deb ataylik» debdi. Ukasi akasining gapini ikki qilmay, qishloq ahli bilan maslahatlashib, bu qishloqni shunday nom bilan atay boshlashibdi. Bizning qishloq ahli Yuqorioqboyning ukasiga ishora sifatida «Qo'yioqboy» deb atalaboshlabdi.

Siyovush HOSHIQOV,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumani.

XATLAR TEGIRMONI



"IBRATLI KELINCHAK" - MENING AYAM

Men o'z onam haqida yozar ekanman, bu ish naqadar og'irligini qo'limga qalam olgach his qildim. Keling, yaxshisi onam hayotidagi ayrim lavhalarni aytib beray.

1998 yil 27 iyun «Oila yili» munosabati bilan «Eng ibratli oila» tanlovi bo'ldi. O'shanda buvam va buvim boshchiligida ayamlar oilasi ham ishtirok etishdi. Ayam eng mashaqqatli rollarni ijro etdilar. Goh zolim qaynona, goh ajoyib shoira bo'lib. Ularning barchalari tanlov shartlarini a'lo darajada bajarishib, savollarga ham to'la-to'kis javob qaytardilar. Keyin faxrli birinchi o'rinni egallashdi.

1999 yil 25 iyunda «Ayollar yili» munosabati bilan o'tkazilgan «Eng ibratli kelinchak» tanlovida ayam va ammaning aytishuvlaridan bir chindimini siz ham eshitib ko'ring-a:

Ammam:

**Kim bo'ldi erta tongdan,
Yuribdi gulzor aro.
Buncha barvaqt turibdi,
Tong bilan oqshom aro.**

Ayam:

**Kim bo'ldi bergan savol,
Nechun yashirin o'zi.
Ro'yomi yo bir xayol,
Bunchalar shirin so'zi?**

Aytishuv shunday zo'r davom etdiki, zalda hatto pashshaning uchgani ham eshitalardi. Undan tashqari boshqa shartlarni va savollarni qoyillatib ijro etgan ayamga faxrli ikkinchi o'rin nasib etdi. Yana ayamning hislatlari, mehribonchiligi yu pazandaligi, chevarligi haqida gapiradigan bo'lsam, qog'oz yetmay qoladi. Shu sababli ham faqat dalillarga asoslangan lavhalarni aytib berdim.

Biz ayam ishtirok etgan barcha tadbirlarni video tasmlarga yozib olganmiz. Agar biznikiga tashrif buyursangiz, miriqib tomosha qilasiz. O'shanda oyijonimning barcha hislatlarini, mehmondo'stligini bilib olasiz.

Gulruh YO'ldosheva,
Navoiy viloyati,
Xatirchi tumanidagi
54-maktabning 6-sinf o'quvchisi.

GO'ZAL FARG'ONAM

Tug'ilib o'sgan maskanim Farg'onani sog'inib qumsayman. Chunki u yerda uyimiz, buvijonlarim, qarindoshlarim bilan birgalikda dugonalarim qoldi-da. Hozirda Toshkentdagi Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyada o'qiyman. Raqs to'garagi va Nafosat qizlar klubiga muntazam qatnashmoqdaman. To'rt yildan buyon fortopianoga ingliz tili va kompyuterni chuqurroq o'rganish maqsadida ta'til kunlari ham qo'shimcha saboq olish maqsadida darsga qatnayapman. Bo'sh vaqlarimda badiiy kitoblar o'qishni, she'r yozishni, musiqa eshitishni yoqtiraman. Kelajakdagi orzuim esa diplomat bo'lish va go'zal Farg'onamga sadoqatli qiz bo'lish.

Osmono'par tog'laring
Ko'klarga bo'y cho'zadi.
Chinorlaring, tollaring
Go'zallik baxsh etadi.

Qushlaring, burgutlaring
Shamoldan ham o'zadi.
Mening ona vatanim
Sening o'zing - Farg'onam.

Soylaringda jilg'alar
O'ynab-kulib toshadi.
Bog'laring go'zalligi
Jannatdan ham oshadi.

Bobo dehqon hech tolmay
O'z ne'matin sochadi.
Tabiat durdonasi
Mening go'zal Farg'onam.

Nargiza YO'LDOSHEVA.

ДАДАЖОНИМ БАЙРАМИ

Дадажоним Ўзбекистон телемарказида ишлайдилар. Яқинда уларнинг ҳамкасблари - Матбуот ва оммавий ахборот ходимларининг байрамиди нишоллади. Шаҳримиздаги "Боғи эрам" сайлгоҳида ажойиб байрам тадбири бўлди. Биз у ерда матбуот соҳасидаги сўнги янгиликлар, ижодкорларнинг ютуқлари билан танишдик. Телемарказнинг макетини ҳам зўр қизиқиш билан томоша қилдик. Биз болажонлар учун барча шарт-шароитлар яратилди: бир томонда болалар шахмат-шашка ўйнашяпти, бир томонда маза қилиб арғимчоқлар учишяпти. Саҳнада эса бир гуруҳ илғор ходимларни «Фахрий ёрлик»лар ва эсдалик совғалари билан мукофотлаш маросими бўляпти. Сўнгра сеvimли санъаткорларимиз ижросида концерт дастурларини мириқиб томоша қилдик ва бир олам таассуротлар билан қайтдик. Уйга келиб дадажонимнинг буйинларидан маҳкам қучиб, байрамлари билан табриклаб қўйдим. Ҳамкасблари сафида соғ-саломат юришларини тиладим.

Дилёра ЭРКИНОВА,
Шайхонтохур туманидаги
45-мактабнинг
5-«Б» синф ўқувчиси.

NODIRDAN XAT KUTAMAN

«Tong yulduzi» gazetasi ning har bir sonini diqqat bilan kuzatib boraman. Hozir ham qo'limga qalam oldim va 25 may sonida to'rtinchi sahifasida e'lon qilingan «Yana o'qish niyatim bor» sarlavhali maqolani o'qiy boshladim, so'ng bir fursat ko'zimni yumdimu o'zimni chet ellarda tasavvur qildim. Yangi dunyo, yangi do'stlar, yangi sinfdaman. «Ehtimol o'qish qiyin emasdir, uddalasa bo'lar», deyman ichimda. Biroq, tilnichi, mukammal bilamanmi?

Ular bilan bemalol so'zlasha olamanmi?

Nodir Abdullayev hattoki senatorlar bilan muloqotda bo'libdi. Men-chi, men tayyormanmi, deb uzoq mushohada qildim. Balki men tengilar haqiqatan ham xorijiy tillarni chuqur bilishar. To'g'ri, o'zim ham tinmay dars tayyorlayman, ingliz tilini muntazam o'rganmoqdaman. Hattoki ingliz tilida she'rlar mashq qilaman. Lekin negadir tanlovda yutib, xorijga o'tlanishga jur'at qilolmayapman.

Iltimos, Nodir Abdullayev menga ikki enlik xat yozsa. U bilan do'stlashsam, maslahatini olsam, deyman.


Ilhom XANJAROV,
Toshkent viloyati,
Bekobod shahridagi
Movarounnahr ko'chasi 3-uy.

HAM MEVASI, HAM SOYASI

Tabiat muhofazasiga bag'ishlab bo'lib o'tgan tadbirimiz ajoyib tantanaga aylanib ketdi. Unga bilim yurtimiz direktori Munavvar Yusupovna, uning muovini O'rinboy aka Boboyorov hamda ximiya va biologiya fanlari uyushmasining rahbari Adiba opa Mahsumovalar rahbarlik qilishdi. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay, tinim bilmay izlangan ishning natijasi albatta o'z samarasini beradi. O'n oltita guruhdan iborat bo'lgan talabalar avval o'zlari tayyorlab kelgan ko'rgazmalari, maketlari bilan qatnashdilar. Tabiat muhofazasiga bag'ishlangan ko'rgazmalardan tashqari cho'l zonasi, chorraxa, bilim yurti ko'rinishi, maktablar, ko'chalar hamda transportlarni ifoda etuvchi maketlar esa tahsinga loyiq bo'ldi. Har bir talaba o'z tasavvuridan kelib chiqib, yangicha modellarni qo'llagan edi. Manzarali daraxtlarni mevali daraxtdan ikki hissa foydalansa bo'ladi. Ham soya-salqin, ham meva beradi, deyishdi. Faxrli birinchi o'rinni 3-«Z» va 3-«YE» guruhlari 43 bal bilan qo'lga kiritishdi. Ikkinchi o'rinni 3-«K» va 3-«N» guruhlari 42 bal bilan egalladilar. Uchinchi o'rin esa 3-«I» va 3-«S» guruhlari nasib etdi.

Iroda MIRSOATOVA,
Toshkent Pedagogika bilim yurti talabasi.





"FAZOGIR"LAR SAYYORASIDA



Fazogir Solijon Sharipov «Shattl» fazo kemasida parvoz qilganida nafaqat kattalar, balki bolajonlar ham unga havas bilan qarashgandi. Chunki bolalarni koinot, undagi biz bilgan va bilmagan ilmlar, ajabovur hodisalar hamisha o'ziga mahliyo qilib kelgan-da. To'g'ri, ayniqsa o'g'il bolalar samolyot va raketalarni modellashtirishga, kosmik kema yaratishga qiziqadilar. Hech bo'lmasa katta samolyotni yaqindan tomosha qilgilari keladi.

Bolajonlarning orzularini Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida joylashgan «Fazogir - Gagarin» sog'lomlashtirish oromgohi xodimlari o'ziga bo'lsa-da, amalga oshirayapti.

Ma'lumki, «Fazogir - Gagarin» oromgohi «Sharq» nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasiga qarashli bo'lib, bolalarning yozgi ta'tilini mazmunli o'tkazishlariga o'z hissalarini qo'shib kelayapti.

Oromgoh bilan yaqindan tanishish, unda dam olayotgan o'quvchilar bilan suhbatlashish maqsadida sog'lomlashtirish maskaniga yo'l oldik. Oromgohga kirib borganimizda bolajonlar tushlik qilishayotgan ekan. Bizni oromgoh boshlig'i G'ulomjon aka Hakimov qarshi oldilar.



Poytaxtimizdagi 273- litsey maktabning 4- «G» sinf o'quvchisi Dilmurod PO'LATOV chizgan suratini «Tabiat qo'ynida», deb nomlabdi.

G'. HAKIMOV: MA'NAVIY SOG'LOMLIK HAR NARSADAN USTUN

Oromgohning birinchi mavsumida 350 nafar o'g'il-qiz sog'lomlashtirilayapti. Shulardan 70 nafari Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan bolalardir. Dam olish maskanida ular uchun barcha kerakli sharoit yaratib berilgan. Dori-darmon ham yetarli. To'garaklaru kutubxonada doimo bolalar bilan gavjum. Toshkent sirki hamda qo'g'irchoq teatri artistlari ham o'zlarining qiziqarli sahna ko'rinishlari bilan bolalarning shodligiga shodlik qo'shayapti.

«Fazogir»dagilar sayyorada yashayaptilar. Sababi «otryad» degan so'zdan voz kechib, o'nta guruhimizga sayyoralarning nomini berdik. Masalan, Venera, Yupiter, Merkuriy, Saturn kabi. Natijada har bir guruh a'zolari o'z sayyoralar haqida ko'proq ma'lumot oladilar, dedi G'ulomjon aka Hakimov. - Sayyoralar o'zaro bellashadilar. Turli musobaqalar uyushtiradilar.

G'oliblari ishtirokchilarni homiyimiz «Sara» firmasi o'zining shirinliklari bilan siylayapti.

Bundan tashqari bolajonlar o'zleri spektakllar sahnalashtirishayapti, ertaklar mamlakatiga sayohatlar uyushtirishayapti. Yaxshiligi yomonlik haqida bahslashayapti.

Maqsadimiz, farzandlarimizning ma'naviy boyligini yanada oshirish, erkin fikr yuritishlariga o'z bo'lsa-da, hissa qo'shishdir. Zero, ma'naviy sog'lomlik, jismoniy sog'lomlikdan ustundir.



MUSOBAQALAR DAVOM ETAYAPTI

Men Kamoliddin Po'latov, O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universitetini bu yil tamomladim. Ushbu oromgohga bosh yetakchi bo'lib ishga keldim.

Biz iloji boricha oromgoh hayotini qiziqarli, mazmunli bo'lishiga harakat qilayapmiz. Bolalarga ma'qul bo'ladigan musobaqalar, sayohatlar uyushtirayapmiz.

Mana hozirgina tog' sayohatidan qaytdik. Soy suvlarida cho'mildik, shifobaxsh giyohlardan terdik.

Uch kun davomida sport musobaqalar bo'lib o'tdi. Chilonzor tumanidagi 114- maktabning 5-sinf o'quvchisi, «Venera» sayyorasi a'zosi Qobiljon futbol bo'yicha chempion bo'ldi. «Burchmulla» oromgohi bolalari bilan bo'lgan futbol musobaqasida ham bizning «Fazogir»chilar g'olib bo'ldi.

«Men nechun sevaman O'zbekistonni» rasm chizishda esa qoraqalpog'istonlik bolalar sira bo'sh kelishmadi. Xullas, barcha bellashuvlarda oromgohimiz bolalari faol ishtirok etishayapti va o'zlarining yaxshi tomonlari bilan bir-birlariga o'mak bo'lishayapti. Bu kabi musobaqalar har kuni davom etayapti.



DILSORA YIG'LAB QOLDI

Men Dilyora Ahmedova Akmal Ikromov tumanidagi 193- maktabning gimnaziya sinfida o'qiyman. Ukam Izzatilla, maktabdoshim Umidlar bilan birga «Fazogir - Gagarin»da dam olayapmiz. Sayyoralar haqida yanayam ko'p narsalarni bilib oldik. Bizga juda yoqayapti.

Bugun oyijonim jajji singlim Dilsora bilan bizni ko'rgani kelishdi. Oyimga oromgohni maqtab gapirayotgandim, singilcham ham men bilan qolgisi keldi. Sen hali kichkinasan, mumkin emas, desak ham sira ko'nmayapti. Qarang rosa yig'layapti.



OTA-ONAMNI HAR KUNI KO'RSAM

Men poytaxtimizdagi 143- maktabning 7- sinfini yakunladim. Ma'rufjon Azimov bo'laman.

«Oromgohdagilar seni juda maqtashdi» deyapsiz. Unchalik emasdir. Agar shunday bo'lsa, juda oshirib yuborishibdi. Aytarlik katta ish qilganim yo'q. To'g'ri, oromgohning ochilish marosimida mash'alani yoqish menga nasib etdi. Juda hayajonlandim, albatta faxrlandim ham.

Adam meni hamisha sog'lom, kuchli bo'lishimni xohlaydilar. Shuning uchun ham uyda jismoniy tarbiya bilan jiddiy shug'ullanaman. Bundan tashqari qo'lda ishlangan mayda narsalar yasashni yaxshi ko'raman. Masalan, chumchuq o'z bolasini ilondan himoya qilayotgan ko'rinishni. Mana bu qo'limdagi esa eramizdan oldingi hayotni ko'z oldimga keltirdim va qo'limdan kelgancha yasadim. Oddiy o't-olanlardan tayyorladim. Bu quyosh, bu inson. U kuchuk bolasini o'ziga do'st deb bildi.

«Fazogir - Gagarin» oromgohi menga juda yoqayapti. Bu yerda ko'plab do'stlar orttirdim. Sardor, Rustam, Sherzod, Otabek.

Lekin ko'proq «Zilola» oromgohi menga yoqadi. Chunki «Zilola» uyimizga yaqin. Ota-onamni deyarli har kuni ko'rardim. Bu yerga esa ular to'rt marotaba kelishdi. Biroq ularni har kuni ko'rgim keladi.

XAYRLASHGIM KELMAYAPTI

-O'tgan yili «Aloqachi» oromgohida besh kun ham bo'lmay ota-onamga ergashib kelgandim. Chunki u yer menga yoqmagandi-da,- dedi 206- maktab o'quvchisi Alisher Abdullajonov. - Bu yil ham ayajonim shunday bo'lsa kerak deb o'ylagandilar. Biroq, unday bo'lmadi. «Fazogir - Gagarin» menga juda yoqib qoldi. O'yinlar, bellashuvlar g'oyatda qiziqarli. Bolalar ham bir-birlari bilan ahil.

Ayniqsa kattakon samolyotning yonidan ketgim kelmaydi. U haqda ko'proq narsalarni bilgim keladi.

Mana, birinchi mavsum ham yakunlanib qolayapti. Uyimdagilarni qanchalik sog'inmay, «Fazogir» bilan ham sira xayrlashgim kelmayapti.



МАҲАЛЛАМИЗГА ХУШ КЕЛИБСИЗ

дея қарши олди бизни Лобархон опа. Сўнгра фахр ва ифтихор билан қуйидагиларни гапириб берди:

-Маҳалламиздаги оналар ҳам, болалар ҳам танлов асосида қабул қилинган. Дастлаб республикамизнинг барча вилоятларидан, жумладан, Тошкент шаҳридан ақлан ва жисмонан соғлом, саккиз ёшгача бўлган, воз кечилган, етим, васийсиз қолган болалар танлаб олинди. Оналикка эса 400 нафар номзоддан 14 нафари муносиб топилди. Ҳозирги кунда маҳалламиздаги 14 оилада тарбия топаётган 55 нафар ўғил-қизнинг қошида 7 нафар SOS-она-тарбиячи, ҳамда 7 нафар SOS-хола-тарбиячилар парвона. Турли миллатга мансуб, ёшлари ҳам турлича бўлган болаларимиздан 4 нафари Мирзо Улугбек туманидаги 49-мактабда ўқишяпти.

3 ёшдан 7 ёшгача бўлганлари маҳалламиздаги болалар боғчасида тарбияланишади. Болаларнинг таълим-тарбияси асосан SOS- она-тарбиячи зиммасига юклатилган. Бу мажбуриятларини бажаришларида Уюшманиз директори Алишер ака Алматов ҳамда педагог ва психологлардан иборат ходимларимиз ёрдам кўрсатишади.

Маҳалламизда кўплаб байрам ва танталар уюштирамиз, санъаткорларни таклиф қиламиз. Наврўзга бағишланган тадбиримизда "SOS-она-тарбиячи"ларимиз маҳалла аёллари билан биргаликда сумалак пиширдилар. Миллий либослар кийган кичкинтойларимизнинг севинчини сўз билан ифодалай олмайман, сумалак ялаб, ўйин-кулгу қилишди.

10 май Жаҳон оналар кунини нишонладик. Болажонларимиз "Томоша" болалар дастасининг чиқишларини мароқ билан томоша қилишди. Оналар эса завқланиб қарсақ чалаётган, рақсга тушаётган ўғил-қизларини меҳр билан кузатишди...

Лобархон ҳамроҳлигида маҳалладаги хонадонларни айланиб чиқдик.

-Мана бу хонадонда 8 нафар бола тарбияланыпти. Улар ҳозир Паркентда оилавий дам олишяпти, - дея изоҳ берди Лобархон ва унинг ёнгинасидаги хонадонга йўл бошлади. Кираверишга алвон рангли гиламлар тўшалган, миттигина супачадаги хонтахта атрофига кўрпачалар ёзилган. Супада 3-4 нафар турли ёшдаги болалар ўйнаб ўтиришибди. Ўзбек, рус миллатига мансуб болакайлар бизни "Ассалому алайкум" дея

кўндирдим. Бир олам орзу-умид билан Қорақалпоғистондан Тошкентга йўл олдим. Омадим бор экан, номзодим оналикка муносиб топилди. Ўшанда дунёда мендан-да бахтлироқ одам йўқ эди... Ҳозир 4 нафар фарзандни тарбиялаяпман. Икки ярим ёшли Наташага Ойгул, 3 ёшли ўғилларим Олег, Алексейларга Рустам ва Темур дея исм қўйдим. Ҳозирча уларни шундай атаяпман. 16 ёшга тўлиб, мустақил бўлишгач, ўз исм-фамилияларида қолишадими ёки менинг қўйган исмларимни танлашадими,

нидил рози бўлдик. Соф ўзбек тилида гапирётган Саша исмли бу боланинг ортидан эргашдик. Она-тарбиячиси Зулфия Исанова тушлик тайёрлаш билан банд бўлганлиги боис, болалар билан гаплашиб ўтирдим.

- Булар кимлар? - сўрадим Сашадан супада ўйнаб ўтирган болаларга ишора қилиб.

- Булар сингилларим, Элвина, София, Албина. Яна бир Диёр исмли укам бор, тоби қочиб касалхонага тушиб қолди. Уни бирам соғиниб кетдимки...



бўлмоқчисан? - яна саволга тутдим уни.

- Прокурор бўламан, Зулфия ойижонимни боқаман, - дея жавоб берди ҳеч иккиланмай.

- Орзуларинг ижобат бўлсин болакай, - дея ният билдириб, бу оила билан хайрлашдик.

ЗАРИНАМ - СУЯНГАН ТОҒИМ

Навбатдаги суҳбатдошимиз самарқандлик 27 ёшли она-тарбиячи Гулбарчин Курбонова бўлди.

- Икки йиллик муддатга тuzилган шартнома асосида она-тарбиячилик қилаётганингиздан хабарим бор. Мана, салкам бир йил бўлиб қолибди. Қарорингиздан афсусланиб, ортга қайтиш нияти туғилмадими? - деб сўрадим ундан.

- Асло, қарорим қатъий. 3 нафар фарзандларим сонини янада орттириш ниятидаман. Чунки ҳаётимни уларсиз тасаввур ҳам қила олмайман. Фарзандларимнинг қувончу тотли ташвишлари билан яшайман. Тўнғичим Зарина ёнимиздаги 49-мактабнинг 2-синфида ўқишяпти. Ўқишлари ёмон эмас, уйда эса менинг суянган тоғим, десам ҳам бўлаверади...

Ўзбекистонимиздаги илк қалдирғоч - "SOS- Болалар маҳалласи" ҳақида кўп эшитгандим. Шундай бўлса-да, бу масканга бир бориб, ҳаммасини ўз кўзим билан кўриб келишни, оналар ва болалар билан суҳбатлашишни дилимга тугиб юрардим. Ниятимга етдим. Хайрлашиб чиқиб кетяпману бу ердаги жўшқин ҳаётни, мен ўйлагандан-да яхшироқ шарт-шароитларни, оналар ва болалар орасидаги меҳр-муҳаббатни, самимийликни кўрибми, қалбимда алланечук энгиллик, кайфиятимда кўтаринкилик ҳукмрон эди. Алишер ака Алматов, Лобархон Йўлдошева, тарбиячи-она-ю холалар сингари фидойи инсонлари кўп бўлсин юртимнинг, дея шивирлаб қўйдим оҳиста.

Феруза ЖАЛИЛОВА.

ONALARNING BAG'RI BUT, BOLALAR KO'NGLI OSMON

экан бу масканда. Оналар "болам" деган, болалар эса "она" деган муқаддас сўзларни айтиш насиб этганидан бахтиёр эканлар. Гап қандай маскан ҳақида бораётганини англагандирсиз? Пойтахтимизнинг энг сўлим гўшаларидан бирида ташкил қилинган "SOS - Болалар маҳалласи" ҳақида.

Дастлаб "SOS" сўзининг мазмун-моҳияти ҳақида тўхталсак. Одатда океан ва денгизларда ҳалокатга учраган кемалар ёрдам сўраш мақсадида ана шундай кўринишдаги сигналдан фойдаланишган экан. Демак, "SOS" - ёрдам маъносини англатаркан.

"SOS - Киндердорф интернационал" но-сийсий, Халқаро хайрия ташкилот бўлиб, дунёнинг 130 дан зиёд мамлакатларида фаолият кўрсатади. Мақсади - миллати ва динидан қатъий назар ногирон, етим ва кам таъминланган болаларнинг оила шароитида тўлақонли тарбияланишига, улғайгач, ҳаётдан ўз муносиб ўрнини топа олишига ёрдам беришдан иборат бўлган "SOS - Болалар маҳалласи" лойиҳасига 1949 йилда австралиялик профессор Герман Гмайнер томонидан асос солинган. Илк болалар маҳалласи ҳам айнан шу мамлакатда, Имст

шаҳрида барпо этилган. Ҳозирда ушбу Халқаро жамиятнинг фаолиятини Президенти сифатида, ўзи ҳам Имст шаҳридаги SOS - Болалар масканида тарбия топган Гельмут Кутин бошқариб келмоқда. 1988 йилда "SOS - Ўзбекистон болалар маҳалласи" уюшмаси ташкил этилди. 2000 йилда ташкил қилинган "SOS - Болалар маҳалласи" унинг илк лойиҳасидир.

Яқинда мазкур уюшманинг расмий очилиш маросими бўлиб ўтди. Уюшманинг ташкил қилиниши, қурилиб фаолият кўрсатишида катта жонбозлик кўрсатган Татьяна Каримова унинг фахрий президенти этиб сайланди.

Яна Самарқандда ҳам худди шундай Болалар маҳалласи ташкил қилишга келишиб олинди. Шу кунни маҳаллага жуда кўплаб меҳмонлар келишди. Чиройли кийимлардаги она ва болалар мезбон бўлишди. Айниқса, тантананага ташриф буюрган Гельмут Кутиннинг кичкинтойларни эркалаб, ўйнатиб ўтириши барчамизни тўлқинлантириб юборди.

Фурсатдан фойдаланиб, уюшма педагоги Лобар Йўлдошевани суҳбатга тортдик.

қарши олишди.

"АЯЖОНИМ" ДЕЙИШСА БАС...

- Болалигимдаги бир воқеа ҳечам ёдимдан чиқмайди, - дея ҳикоя қилди уларнинг она-тарбиячиси Муяссар Хайтимбетова, - бир лўли аёл келиб, 9 нафар фарзандинг бўлади, деб башорат қилганди. Менинг эса фарзандсизлик туфайли оилам бузилди. Яқинда оналар танлови бўлаётганини эшитиб қолдим. Уйдагиларим бироз қаршилик қилишса-да, маҳалламиз оқсоқолини ўртага қўйиб, бир амаллаб

бунни ўзлари ҳал қилишади. Тўнғичим Муҳаммадолим Мамасолиев 9 ёшда, у менинг энг



яқин дастёрим. Яна 5 нафар болани тарбиямга оламан. Шунча болани тарбиялашнинг ўзи бўлмайди, албатта. Лекин фарзандларим бир бора "аяжон" деб чақирсалар бас, чарчоғларим унут бўлиб кетаверади...

«БИЗНИКИГА ХАМ КИРИНГ»

У хонадондан бунисига ўтиб юрганимизда бир болакай ёнимга келиб, "бизникига ҳам киришлар" дея қўлимдан тортқилай бошлади. Биз бажо-


- Демак, уни ҳаммадан кўпроқ яхши кўрар экансан-да.

- Ҳаммаларини бирдек яхши кўраман. Айниқса, кичкина сингилчамни.

- Мана бу гулларни ким ўстиряпти? - сўрадим ҳовлидаги ранго-ранг гулларга, хушбўй райхонларгу мевали дарахтларни кўрсатиб.

- Ким бўларди, мен-да. Ахир ойижонимнинг энг яқин ёрдамчисиман-ку. Бозорларга ҳам бирга тушамиз, картошка, олмаларни кўтариб келаман. Кечки пайт ҳовлимизга сув сепиб, муздеккина қилиб қўяман.






Eski og'ixonamizning bog' tomonga qaragan bo'g'otida kattaligi o'rtacha laganday keladigan ari uyasi bo'lib, unda sarg'ish qovoqarilar ertalabdan kechgacha g'uj'g'on o'ynab, g'o'ng'illashardi. Uzum ishkomi yonida yotgan ingichka xodani ko'tarib kelib, arining uyasiga urdim. Xoda urilgach, uyaning bir parchasi ko'chib, yerga tushdi. Kutilmagan hujumdan asabiy g'uwillab qolgan arilarga angrayganча tikilib qolgan


ekanman, atrofimda bir nechta ari g'uwillab, so'ng biri qulog'imga, biri peshonamga kelib urildi-yu jaz etib igna sanchishdi. Og'riqdan dodlaganimcha xodani yerga tashlab, qo'llarimni silkitib, bog' tomonga qochdim.

Arilar ancha joygacha g'uwillab, quvib borishdi. Shu quvishda yelka va bo'yimga ham jazillatib nayza sanchishga ulgurishdi.

Og'riq va mag'lubiyat



QASOSKOR ARILAR



alamidan ishkomi tagida o'tirib, achchiq-achchiq yig'ladim. Jinday o'zimga kelib, o'rnimdan turib, bo'g'otga yaqinlashishim bilan jangari arilar poylab turishgan ekan, g'uwillab yo'limni to'sishdi. Uzum ishkomi panalab uyga bir amallab kirib olganimda bir qulog'im qizarib, shishdan qalqaygan, bo'yim qayrilmagan, peshonam do'ng edi. Akam shishgan joylarga loy chaplagan edi, og'riq pasayib, jonim tinchlandi.

Ertasiga ertalab bo'g'ot tagidan ashula aytib o'tib ketayotsam, g'uwillagan ovoz eshitildi, so'ng bir necha ari boshim uzra g'uj'g'on o'ynab, biri burnimga, ikkinchisi bo'yimga jazillatib igna sanchib qoldi. Yana men qo'llarimni silkitganча bog' ichiga qarab qochdim.

Shu-shu bo'g'ot tagidagi yo'lak men uchun berkildi. Boshqalar bemaol o'tadi, men o'tsam arilar hujumga tashlanishadi. Bir haftagacha arilar bilan quvlashmashoq o'ynashib, bosh-ko'zim shishib yurdim. Nihoyat bardoshim tugab, bobomga dardimni aytdim. Oqshom payti bobom bir cho'mich qaynoq suv ko'tarib borib, ari uyasiga urdi. Qaynoq suvda pishgan arilar yerga bodroqday duv etib to'kildi. Men hadiksirab bu manzarani uzoqdan kuzatdim. Keyin bobom ari uyasini xoda bilan ko'chirib, yerga tushirib, ezg'ilab tashladi-da: - Mana, tamom, chirog'im, aridan qutulding, - deb kuldilar.

Tohir QURBONOV.

Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining ta'lim dasturlari bo'limi «Tong yulduzi» gazetasining o'quvchilarini o'quv yilining tugashi va yozgi ta'tilning boshlanishi bilan

abriklaydi!

Biz yozgi ta'til har biringizga quvonch, unutilmas uchrashuvlar, kashfiyotlar va muvaffaqiyatlar olib kelishiga ishonamiz.

Ta'tildan so'ng esa sizni yana maktab kutadi, ammo bungacha ancha vaqt bor. Shunday bo'lsa ham, biz sentyabr oyida gazetamiz sahifalarida «Men insonlikni qanday tushunaman» tanlovi e'lon qilinishini xabar qilmoqchimiz.

Tanlov «Inson va jamiyat» kursi bo'yicha qo'shimcha o'quv qo'llanmasi bilan shug'ullanuvchi 11- sinf o'quvchilari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning talabalariga mo'ljallangan.

Albatta, mazkur tanlovda boshqa sinflar o'quvchilari ham o'z kuchlarini sinab ko'rishlari mumkin, chunki o'quv qo'llanmasi o'qituvchilar

tomonidan boshqa ijtimoiy fanlarni o'tishda ham foydalanilmoqda.



ISTAK

Men onamni sevaman,
Keng olamni sevaman.
Tinch bo'lsin olam, deymen
Sog' bo'lsin, onam deymen!

O'ZBEKISTON QIZI

Ota-onam boshimda,
Iqbol qushi boshimda.
Shu eng go'zal yoshimda
Elning ozod qiziman,
Ajodlar izdoshiman.

Osmonimiz tip-tiniq,
Tinchlik eng katta boylik.
Yurtim obod, chiroylik,
Men shu yurt dilbandiman,
Elning ozod qiziman.

Meni chorlar kelajak,
A'lo o'qishim kerak.
Yurtga bo'lgumdir qanot,
Kelajak farzandiman,
O'zbekiston qiziman!



Shunday qilib, sizlarga dastlabki topshiriq:

MEN

ISTIQLOL QIZIMAN...

O'g'iloy - so'zi biyron, zukko qiz. Darslari puxta, ishi tartibli. Ustozlarini juda sevadi. Dugonalari davrasida o'zini baxtli his qiladi. Hayot zavqi, o'qib-izlanish havasi, ota-onasi, do'stlarining mehr-muhabbati unga ilhom beradi, she'r yozishga undaydi. «Men istiqloq qiziman!» - deydi u va ko'nglidagi orzularini she'rlarida bayon etadi. O'g'iloy mashqlaridan ayrimlarini sevimli gazetasiga tuhfa etadi...



DUGONAMGA

Qadamida gul ungan,
Afsona qiz, ertak qiz.
Yuz-ko'zi kulib turgan
Gullola qiz, erka qiz.

Parimisan, oymisan,
Yo sho'x-shaddod soymisan?
Yuraging buncha yorug',
Yo shu'laga boymisan?

O'zi shirin asal qiz,
So'zlari dur, g'azal qiz.
Oyisiga oppoq qiz,
Otasiga novvot qiz!

Gul undirsin qo'llaring,
Ochiq bo'lsin yo'llaring,
Zavol ko'rma hech qachon,
Baxtga to'lsin kunlaring!

O'g'iloy YO'LDOSHEVA,
Jizzax viloyati,
Do'stlik tumanidagi
G'afur G'ulom nomli maktabning
4-sinf o'quvchisi.

Diqqat, tanlov!

Siz mazkur o'quv qo'llanmasi bilan ilk marta qanday tanishgansiz va u haqda sizda qanday taassurot qolgan?


To'g'ri va mazmunli javoblar e'tiborga olinadi va gazeta sahifalarida chop etiladi.

Tanlov uch bosqichda o'tkaziladi: dastlabki bosqich - sentyabrda, keyingisi-oktyabrda va nihoyat, so'nggi bosqich-noyabrda.

Tanlov g'oliblari bir qancha yo'nalishlarda aniqlanadi. Jumladan, 1- o'rinni egallasangiz - audio magnitofonga, 2- o'rin uchun - fotoapparatga, 3- o'rin uchun - audiopleeraga ega bo'lasiz.

Javoblaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz:
700000, Toshkent shahri, Asaka 1- tor ko'chasi, 8-uy, XKXKning Markaziy Osiyodagi Mintaqaviy Vakolatxonasi, ta'lim dasturlari bo'limi. «Tanlov»

MEN INSONILIKNI QANDAY TUSHUNAMAN



Ўзбекистон Республикаси "Камолот" ёшлар ижтимоий Харакати ҳомийлигидаги Болалар ташкилотининг "Биринчи Республика анжумани" ўқув семинари Жиззах шаҳрида 20-21 июн кунлари бўлиб ўтди. Анжуманининг ўтказилишидан мақсад ёш авлодни Ватанга муҳаббат, истиқлол ғояларига садоқат руҳида юксак маънавият, соғлом, билимдон қилиб тарбияловчи болалар томонидан тузилган жамоат ташкилоти сифатида тарғиб қилиш, болаларнинг шахсий ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш, Ватанимизнинг содиқ фуқаролари бўлиб етишишларига, ўз ишлари ва ҳаракатлари билан жамиятга фойда келтиришларига тўғри йўл кўрсатиш эди.

Анжуман "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракати ҳомийлигидаги Болалар ташкилоти раҳбарлари, оммавий ахборот воситалари ходимлари иштирокида ўтказилди. Анжуман Болалар ташкилотига бағишланган ўқув-семинар билан бошланди. Уни "Камолот" ёшлар ижтимоий Харакати вилоят кенгаши раиси А. Темиров кириш сўзи билан очиб берди. Сўнг Ўзбекистон Республикаси "Камолот" ёшлар ижтимоий Харакати Марказий кенгаши раисининг биринчи ўринбосари, Болалар ташкилотининг раиси К. Куронбоев "Болалар ташкилотининг мақсад ва вазифалари тўғрисида" маъруза қилди. Ўзбекистон Республикаси Халқ Таълими вазири ўринбосари У. К. Мусаевнинг "Халқ таълими тизимидаги мактабларда Болалар ташкилоти фаолияти тўғрисида", Республика ўқувчилар саройи директори О.Ж.Ибрагимовнинг "Болалар ташкилоти ишлари ривожлантиришда клублар, тўғрақларнинг тутган ўрни", "Ёш куч" журнали бош муҳаррири Э. Абдурахмоновнинг "Болалар маънавиятини ривожлантиришда оммавий ахборот воситаларининг роли", "Тонг юлдузи" газетаси бош муҳаррири Умида Абдуазимованинг "Болалар нашрларининг ташкилотлар билан ҳамкорлиги тўғрисида", Тошкент шаҳар бўлими, Болалар ташкилоти раиси Г.Олимжонованинг "Маҳаллалар ва жойларда Болалар ташкилотларини тузиш", "Қорақалпоғистон Республикаси Болалар ташкилоти раиси М.Атамуротованинг маърузалари тингланиб, мунозара қилинди. Семинар тугагач, Жиззах вилоятининг болалар оромгоҳларида "Болалар ташкилоти кунлари" тадбири бўлди. Оромгоҳда турли мавзуларда шеър-

хонлик кечаси, расм чизиш танлови, Давлат рамзлари бўйича савол-жавоблар, мушоиралар, спортнинг барча турлари бўйича мусобақалар уюштирилди. Мусобақаларда фаол иш-

тирок этган ўқувчилар "Камолот" ёшлар Харакати томонидан диплом ва совғалар билан тақдирландилар.

МУСТАҚИЛЛИККА ТЕНГ ҚАЛДИРҒОЧЛАР

Жиззахдаги "Истиқлол-Форум" ёшлар мажмуида 20 июн куни битирувчи ёшларнинг "Хайр мактаб - 2001" байрам кечаси бўлиб ўтди. Байрамни Жиззах вилояти ҳокими Ш.Мирзиёев кириш сўзи билан очиб берди. Шунингдек, "Хайр мактаб - 2001" анжумани қатнашчиларига вилоят ҳокими ўринбосари О.Жавлонов байрам табригини йўллади:

"Қадрли ёшлар!

Хурматли анжуман иштирокчилари! Аввало, шубҳасиз барчангизнинг қалбингиздан чуқур ўрин эгаллай оладиган бугунги ажойиб тантана билан самимий қутлайман!

Сиз билан унутилмас, ҳаммамиз учун муқаддас сана - хур Ўзбекистонимиз Мустақиллигининг 10 йиллиги олдида учрашиб турибмиз. Тўғри, 10 йил тарих олдида жуда қисқа фурсат. Лекин ана шу қисқа давр мобайнида мамлакатимизда амалга оширилган ишлар қамровининг бешиқ улкалиги билан асрга татийди. Фақат истиқлол туфайлигина бугунгидек ажойиб тантаналарнинг гувоҳи бўлиб турибмиз...

Таълимнинг янги тизими яратилиб, сизларнинг тенгдошларингиз учун жаҳон андозаларига тўла мос келадиган академик лицейлар, гимназия,

коллеж ва янги типдаги мактабларда ўқиш имконияти яратилди. Бундан 10 йил аввал ўқишгина эмас, ҳатто хорижга чиқиш амри маҳол эди.

Мустақиллигимизнинг ўтган 10 йил давомида вилоятимиздаги ўқув даргоҳларини тамомлаган энг иқтидорли ёшлардан 26 нафари республика фан олимпиадаларида фахрли ўринларни эгаллаб, уларнинг 17 нафари чет элда ўтказилган кўрик-танловлар ғолиблари сифатида бугун хориждаги энг ривожланган давлатларда таълим олишмоқда. Худди сизлардек кечагина мактабни битирган Нуриддин Икромов, Нуриддин Камолов, Алишер Абдулаха-

дов Америкада, Файрат Мамадазизов Германияда, Ориф Туропов Буюк Британияда таҳсил олмақдалар. Марказий Осиёда ягона саналмиш олимпия захиралари коллежи талабаси Олимжон Равшановнинг ўзбек кураши бўйича ўсмирлараро жаҳон чемпиони деган шарафли номни қўлга киритиши, Термизда "Соғлом авлод учун" жамгармасининг соврини учун ўтган кураш Халқаро турнирида олтин медал соҳиби бўлган, жаҳон чемпионатида йўлланма олган яна бир тенгдошингиз Пахтакор туманидаги мактаб ўқувчиси Сурайё Мусаеванинг ғалабаси ҳар биримизнинг кўнглимизда фахр туйғуларини мужассам қилиши шубҳасиз. Бир ой муқаддам муҳтарам Ислом Абдуғаниевич Каримовнинг ташаббуслари билан Жиззахда "Баркамол авлод спорт ўйинлари" бўлди. Унга кўпчилигингиз иштирокчисига айланган Тошкентдаги "Олимпия умидлари" мусобақаларида замин қўйилганди. Ҳали бу каби мусобақалар ва беллашувлар юртимизда кўлаб уюштирилишига шубҳа йўқ".

Байрам якунига бағишлаб байрамона безатилган, шиорлар ёзилган жойда гала концерт уюштирилди. Таниқли санъаткорлардан Абдулхай Каримов, ёш хонанда Марғуба Мажидова ва кўпчилик меҳрини қозониб келадиган "ШОД" дастаси, Жиззах вилоятидаги болалар гуруҳлари, рақс дасталари, таэквондо, каратэ жамоаларининг чиқишлари барчани хушнуд этди. Ёпилиш маросимида Жиззах шаҳридаги 14-ўрта мактабнинг ўқитувчиси М.Шерназаров сўзга чиқди.

Байрамларга байрамлар уланган юртда кўтаринкилик кайфият ҳамон ҳукм сурмоқда.

Мухаррама ПИРМАТОВА.

Ha, darhaqiqat hayot shirin va achchiq. Kimdir ota-ona mehriга zor bo'lsa, yana kimlardir tirmoqqa zor. Bunday hollarni kundalik hayotimizda ko'p kuzatganmiz.

Tunov kuni ko'chada ketayotsam avtobusga ikki ayol chiqqida, menga yaqin bo'lgan o'rindiqqa o'tirishdi. Odamlar siyrak bo'lganligi uchun ularning gaplari eshitilib turardi.

Ulardan biri farzandsizligidan nolib, o'ksib-o'ksib yig'ladi. Ikkinchi ayol esa, hali hammasi oldinda, deya uni yupatardi.

O'sha ayolning mungli ko'zlari hali-hamon ko'z o'ngimda.

Xuddi shu kuni bir jajigina qiz mendan nonga pul so'radi. Bu voqeani ko'rdimu haligi ayol yodimga tushib ketdi. Uning g'amgin ko'zlari farzandim yo'q deb yig'lasa, jajji qizchaning ko'zlari ota-onam yo'q, qornim och deya yig'layotgandek edi nazarimda.

Nima uchun begunoh murg'ak qalblarning ko'zlari namga to'lishi kerak?, Ularning gunohi nimada, deya xayqirgim keldi.

Shahlo MUTALOVA.



BIRINCHI VA SONGGI UCHRASHUV

O'sha kuni «Gulxan»ga kirib borganimizda ustoz Safar aka Barnoyev men va oyim bilan xuddi eski qadrdonlardek quyuq so'rashdilar. Qo'limdagi daftarimni olib, erinmasdan har bir she'rimni o'qib chiqdilar. Batafsil maslahat berib, kelajakda yaxshi shoira bo'lishimga ishonch bildirdilar. Ular maslahatlari bilan «Tong yulduzi»ga keldik. She'rларim kitobcha holda chiqdi. Toshkentda yaxshi odamlar ko'p ekanligidan juda ham xursand bo'lib ketdim. Chunki kichkina demay meni kattalarday qabul qilishdi. To'g'ri yo'lga chorlashdi. O'shanda ustoz Safar akadan minnatdor bo'lganimni nega baralla ovoz bilan qayta-qayta aytmadim, deb haligacha o'kinib yuribman. Ustoz bilan birinchi va so'nggi bor uchrashuvimiz mening xotiramda abadiy saqlanib qolajak. Oloh o'z rahmatiga olgan bo'lsin.

Mehrinoz ALIYEVA,
Andijon shahridagi
1-gimnaziyaning 5-sinf o'quvchisi.

Vatan menga nima berdi deb emas, men o'zim xalqim, Vatanim uchun nima qilmoqdaman, deb yashash kerak.

Islom Karimov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "KAMOLOT" YOSHLAR IJTIMOYI HARAKATINING DASTURI

Biz - O'zbekiston yoshlari:

- mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida belgilangan kafolatlardan foydalanib, Vatanimiz istiqloli tufayli o'z taqdirimizni o'z qo'limiz bilan yaratish imkoniyati vujudga kelganini his etib;

- Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi, mamlakat kelajagi bilimli, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodga bog'liq ekanini, bu borada avvalo yoshlarning o'zi tashabbuskor bo'lishi zarurligini, o'z Vatani va xalqiga sadoqatli, haq-huquqini tanigan insonlar taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi ekanini nazarda tutib;

- yurtimizda amalga oshirilayotgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish jarayonida faol ishtirok etish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan turli asoratlarga, loqaydlik, mahalliychilik, boqimandalik kabi ijtimoiy illatlarga qarshi kurashish zaruratini hisobga olib;

- yoshlarning yuksak orzu-intilishlarini mujassamlashtirib, ularning hayotiy manfaatlarini himoyalash maqsadida;

-o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkiloti - O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar harakatini tuzishga qaror qildik.

Harakat faoliyatining asosiy maqsadi-yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etish uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bo'lishdan iboratdir.

Biz Harakat faoliyatini yoshlikka xos so'z va jo'shqin intilishlar asosida, rasmiyatchilik va byurokratiyadan xoli tarzda tashkil etishda, yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishda, ularni asosiy maqsadlarimiz sari yo'naltirishda keng jamoatchilik, davlat va nodavlat tashkilotlari, yoshlar murabbiylari, yurt oqsoqollari, milliy ma'naviyatimiz va dunyoviy taraqqiyot tamoyillarini uyg'un holda ko'radigan millionlab tengdoshlarimizga tayanamiz.

Biz bu yo'lda quyidagi vazifalarni o'zimiz uchun ustuvor yo'nalish etib belgiladik:

I. SIYOSIY-HUQUQIY SOHADA

1. Mamlakatda faoliyat ko'rsatadigan barcha siyosiy partiyalar, ijtimoiy guruhlar bilan Harakatning dasturiy vazifalari doirasida o'zaro tenglik asosida hamkorlik qilish.

2. Yoshlarga doir qonun loyihalari, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar muhokamasida ishtirok etish, yoshlar muammolarini o'rganish va ularni hal qilish yuzasidan davlat hokimiyatining qonunchilik va ijroiya organlariga o'z takliflarini kiritish.

3. Mamlakatimizda erkin demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishga ko'maklashish maqsadida muntazam ravishda yoshlarning huquqiy bilimini oshirib borish.

4. Barkamol avlodni tarbiyalash sohasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishga yoshlarni jalb etish, bu borada turli bo'g'indagi davlat va jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qilish.

5. Yoshlarning kuch-g'ayratini, intellektual salohiyati, kasb malakasini Vatan ravnaqi uchun yo'naltirish. Davlat bilan yoshlar o'rtasida mustahkam ko'priklar, yoshlar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarining ishonchli va faol himoyachisi bo'lish.

6. Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarning yoshlarga oid siyosati asoslarini o'rganish va xalqaro yoshlar tashkilotlari bilan o'zaro foydali aloqalar o'rnatish.

(Davomi bor).

Taniqli yozuvchi, uzoq yillar Toshkentdagi maxsus maktablardan birida hindiy tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan Dadaxon Nuriyning safarnoma janridagi «Daricham ro'parasidagi Pokiston» («Pokiston «Oltin devor» tirqishidan») kitobi o'quvchilar qo'liga tekkaniga ko'p vaqt bo'lgani yo'q.

Adib o'zining «Boysun kengliklaridan Kandi o'rmonlarigacha» nomli yangi to'qilmagan sarguzashlar asarini yozib tugatdi. Uni o'qib dashtu sahrolar, tog'u toshlar, o'rmonu odam oyog'i yetmagan jungli so'qmoqlari bo'ylab muallif bilan sayru sayohat qilgandek bo'lasiz.

Ajoyib va g'aroyib kishilar bilan uchrashib, kulgili va tahlikali vaziyatlarni boshdan kechirasiz. Bir so'z bilan aytganda, dunyo kezasis.

Kitob sakkiz qismdan iborat bo'lib, uning «Shayton malaylari» qismini diqqatingizga havola etamiz.

Asar «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan to'raligicha bosib chiqarilmoqda.

«BEDANA KABOB» ARCHALI HOVLI

«Taxta ko'prik» mahallasidagi hovlimiz ishin-yozin igna barglari yam-yashil bo'lib turadigan bahaybat archa daraxti orqali hammaga otning qashqasiday ma'lum edi. Odatda bizning shart-sharoit uchun urf bo'lmagan bu daraxtni kim tomonidan qachon o'tqazilganini hech kim bilmasdi. Qariyb sakson yoshni qoralab qolgan Achaxon buvimizning «juda qadim daraxt o'z urug'idan ko'karib chiqqan deyishardi» deganlarini sal-pal eslayman.

Xullas, «Archali hovli» desa Namanganning narigi burchidan ham hech kim adashmay biznikini topib kelaverardi. Uyimiz shundoq maktab yaqinida emasi, Yangi yil boshlanishi bilan archamiz qanchadan-qancha bolalarga shavqu zavq bag'ishlardi. Maktab zavxozi bir oyog'i maymoq Asqar aka yuqori sinfdan uch-to'rt bolani yetaklab hovlimizga kirib kelar, archaning g'ovlab ketgan ortiqcha shoxlarini avaylab kestirardi. Keyin shoxchalarni uzun yog'ochga bog'lab, o'ta zalning o'rtasiga o'rnatib, turli o'yinchoqlar bilan bezatilardi.

Archali hovlimizning etagi katta bog' bo'lib, subxon, kandak, mayizak deb ataluvchi turli nav o'rik, ertapishar qirmizi olma, g'aynolidan tortib qirovli kunlarda ham mevasi tosh qotib yotadigan, qish oxirlariga borib, novvotrang asal tusini oladigan nashvati daraxtlar bilan qoplangandi.

U yerdan doim g'urrakning «g'ur-r-g'u-urr»lab sayrab qo'yishi, daraxt po'stlog'ini uzun tumshug'i bilan teshib, qurt-qumursqani olish harakatiga tushgan «qizilishon»ning «taq-taq-taq»i eshilib turardi.

Qo'shnimiz Qurbon ota bog'ini ajratib turuvchi har qor-yomg'ir yoqqanda «uvalanaverib» pastak bo'lib qolgan qalin paxsa devor bo'lardi. Unga yonboshlab ikki tup anjir daraxti shunday tarvaqaylab o'sib yotardiki, kech kuzda ularni yerga tirab, shox-shabbalarini arqonga solib ko'mishning o'ziga mahallaning o'n chog'li man-man degan yigitining yarim kun vaqti ketardi.

Lekin, bunday ovoragarchilikning gashti-yu rohati ham bor edi: anjir shoxlarida «xoki» bo'lib qolgan mevachalari qishdan eson-omon chiqar, ertapishar gilolar rang olmasdan ularga og'zim tegardi. Odatda bunday barvaqt yetiladigan mevalarning mazasi unchalik bo'lmaydi - saraton taftini ko'rmagan deyishadi. Biroq, anjirimiz hosili bahordan tortib, kech kuzgacha qiyom bog'lab yotar, har donasini og'izga solganda asal yeganday bo'lardingiz. Egamberdi o'poqdadam «bu eski paxsa devorning zo'ridan!» deb qo'yardilar.

Shirin narsa kimlarga yoqmaydi deysiz: anjirning bahaybat shoxlari orasidan chug'ur-chug'ur ovozlari tinmas, parranda-yu darrandalarning «anjirxo'rlik bazmi» shom qorong'usi tushganicha davom etardi.

TO'RAXON AKANING SIRLI «MASHINASI»

Qurbon otaning o'rtancha o'g'li To'raxon aka armiyadan xizmat burchini o'tab, boshiga «chuchvara do'ppi» qo'ndirib, egnida «musicha kamar shim» bilan kelganidan ko'ra sochni o'zi oladigan «mashina»si borligi

SHAYTON

malaylari mahallada ko'proq ovoza bo'ldi. Biz uni katta traktorga o'xshab tarillab ishlasa kerak deb o'ylab, keng yalanglik hovliga kirib, atrofga nazar tashladik. Uzunasiga ketgan baland so'ritok ostida shotisi ko'tarib qo'yilgan ot aravadan boshqa narsaga ko'zimiz tushmadi.

Ko'p o'tmay mahallaning sochi o'sgan jamiyki bolasini To'raxon akaning o'zi hovliga yig'ib, yog'och kursiga o'tqazib qo'yib, sataroshlik qila boshladi: «mashina» deganlari tokqaychidan kattaroq yosh bolaning mushtchasiday, yaltiroq boshli, ikki bandini kaft bilan bossangiz, mayda tishlari sochni bir tekisda beda o'radigan «kesilka»day olib ketaveradigan oddiygina narsa ekan.

To'g'ri, ba'zan ustaning tajribasizligidanmi sochlarimiz «yamlanib» boshimiz terisi tortishib qolar. Lekin ko'zlarimizdan tirqirab yosh chiqsa-da, o'zimizni o'g'ilbolacha tutib, chidashga majbur edik.

Mening chap qulog'imdan tortganicha sochimni ola boshlagan To'raxon aka nariroqda ayvon raxida o'tirgan Hamidxon akamni gapga tutdi:

- Bu deyman, anjir rosa bo'pti-da! Jonivorning har shoxidan bir savat hosil chiqar!

- Lekin, mazasini qorayaloq qushlar ko'ryapti. Ikki yildan beri juda ko'payib ketdi. Ayniqsa, kechki payt shunday yopirilib keladiki, haydasangiz ham ketmaydi. Juda ochofat qush bo'larkan.

- Ammo uning go'shti bedananikidan qolishmaydi, deyishadi, - To'raxon aka qulog'im atrofidagi sochlarimni qitirlatib olarkan, bir lahza to'xtab, ovozini balandroq qo'yib, akamga qaradi, - bir bedana kabob qilmaymizmi? Miltiq joyidami?!

- Ha. Ikki-uchta sochma o'qli patron ham bor! - Hamidxon akam o'rnidan turib ketdi.

To'raxon aka qulog'imni qattiqroq cho'zdi, mashinka bir tutam soch aralash uning bir chetini yamlab oldi. Lekin og'riqqa chidadim.

Boshi tap-taqir qilingan besh-olti bola Tegirmonboshidagi shovvaga borib ch o' m i l d i k .

MALAYLARI

Ko'ylaklarimizdan qorin-yelkalarimizga sanchilib, vujudimizni achishtirib yotgan soch tolalarini qoqib tushirdik-da, kiyinib oldik, so'ng uy-uyalarimizga tarqadik.

FALOKAT

Bog' to'rini qushlarning chug'ur-chug'uri bosib yotardi. Ayniqsa anjir atrofidagi «bazm» avjida edi. Men qorayaloqlarning qanday qilib anjir yeyishini bir tomosha qilmoqchi bo'ldim.

Asta-sekin anjir ostiga kelib o'tirib oldim. Quloqni qomatga keltiruvchi shovqin-suron salgina yuqoridan - quyuc shapaloq barglar bilan qoplangan anjir shoxlari orasidan eshiltildi. Qushlar shunday ko'p edi-ki, qanotlarini bir-biriga potirib urilishidan yaqin atrofdagi uncha-muncha sharpani ham sezishmasdi. Qorayaloqlar shundoq qo'l uzatsa yetadigan joyda ko'rinib turardi. Ikki-uchtasini bilintirmay oyog'idan shappa ushlab olsam qanday bo'larkin deb o'yladim-da, xuddi qari mushugimizday paypaslanib, anjirning yer bag'irlab ko'tarilib ketgan yo'g'on tanasiga bag'rimni berib, yuqoriga siljiy boshladim. Ko'ylakchan edim - qornimga nimalardir qattiq botib, og'riq turdi, uning ustiga «chumolilar yo'li»ga tushib qolgan ekanman, chunonon talay

Dadaxon NURIY

ketishdiki, asta qo'yavering! Lekin, chidadim. Ana, qorayaloqlar galasi tomon yaqinlashib, ularni ikki-uchtasini mo'ljalga olib, endi chang solmoqchi bo'lgandim, burnim kavagi tomon o'rmlay boshlagan chumolilar sabab, qattiq aksirib yubordimmi yoki urush kinolaridagiday osmondan bomba tushdimi, bilmayman «gumbi-ir» etgan ovozdin hammayoq ag'dar-to'ntar bo'lib ketayozdi. Men anjirning silliq, yo'g'on tanasidan jonsiz bo'lib pastga qulaganimni, ustimga tap-tap etib sarg'ish mevalar-u to'zib ketgan qora narsalar tushganini, yuzim aralash bo'yinlarim orasidan issiq, shilimshiq nimadir oqa boshlaganini eslayman, xolos...

Bir mahal tepamda esxonasi chiqib ketgan, ranglari dokaday oppoq To'raxon aka, Hamidxon akam turganini ko'rdim. Bundoq boshimni ko'tarib qaragam, jiqqa qonga belanib, joyishti o'rtasidagi archa daraxti ostiga qo'yilgan yog'och karavotda yotibman.

Shartta o'rminidan turib ketdim. Bir qadamcha narida ikki «og'izli» - qo'shotar miltiq yotardi. To'raxon aka menga angrayib qarab turdi-da, hayajonlanganidanmi, suyunib ketganidanmi, bilmayman, qulog'imga chang soldi:

- Hoy, shalpanquloq, tirikmisan?! Hamidxon akam shosha-pisha qonga «belanib» yotgan vujudimga qo'l yugurtirib chiqdi, so'ng:

- Hayriyat, bir xudo asrabdi, endi umri uzoq bo'ladi! - dedi-da, shartta ko'tarib, hovlimiz yalangligi yonidan oqib o'tuvchi ariq suviga oborib pishdi.

Lekin «qo'shog'iz»ning son-sanoqsiz sochma o'qlaridan biri zoye ketmagan, o'nga yaqin qorayaloq qushlari qatori chap qulog'imning bir chetini yalab o'tgandi. Unga qozonning qora kuyasidan keltirib bosishdi.

O'limimga bir bahya qolgan bu hodisa uyimizda hech kim yo'qligida, hamma shahardan chetroq Mashhaddagi bog' hovlimizga o'rik qoqqani ketganda sodir bo'lgandi. Shuning uchun «Bedana kabob» xususida Hamidxon, to'raxon akalarimga hech kimga, hech narsa demaslikka so'z bergandim-u... bari-bir og'zim bo'shlik qilib, Achaxon buvim qulog'ingga nima bo'ldi, qayerga «ilib» olding deb so'rayverganlaridan keyin, bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay aytib qo'yibman.

Buvim meni juda yaxshi ko'rardilar, yeri ko'kka ishonmasdilar.

-Voy, sho'rim, - dedilar-da, nariroqdagi ishkom ostida endi nima yuz berishini olazarak bo'lib kutib turgan Hamidxon akamni qo'llaridagi kosov bilan quvalay ketdilar. Akam bir lahza bog' to'riga singib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Buvim halloslab yalanglikka qaytib kelib, savatdagi tandirdan yangi uzilgan nondan ikkitasini dasturxonchaga o'rab, meni ko'cha tomon yetakladilar.

Qayoqqa ketayotganimizni darrov sezdim: to'rt hovli naridagi yolg'iz o'zi yashaydigan kampir Qumri «yo'yimchi»nikiga. U o'choqdan piyolaga yarimlatib kul soladi-da, chit ro'molga o'rab, bosh-ko'zlarim, yelkalarim uzra asta urib aylantiraveradi, to'xtovsiz o'qchoq tutgandek esnab «Do'st-dushmanidan kirgan bo'lsang chiq-chiq», «Balo qazodan kirgan bo'lsang chiq-chiq!» deya qaytaraveradi va nihoyat piyoladagi taram-taram bo'lib qolgan kulni buvimga ko'rsatib «tuzukkina ko'z» tegibdi, aylanay» deb qo'yadi...

Bu safar «yo'yimchi» oldiga nima uchun ketyapmiz, u meni nima deya yo'yadi, bilmasdim. Har qalay bir falokatdan omon qolganim uchun bo'lsa kerak...

(Davomi bor).

ISTAMBULDA HAM «TONG YULDUZI» O'QISHADI



Adib Dadaxon NURIY dunyo tan olgan musulmon olamining mashhur fizik olimi, doktor Abdul Qodir Xon bilan.

Olim «Tong yulduzi» gazetasida o'zi haqida bosilgan maqola bilan tanishayotgan payt.

BIZNING TO'GARAK



To'g'risi, ta'til kunlari emasmi, to'garak mashg'ulotimizga bolalar bunchalik ko'p kelishadi, deb o'ylamagandik. Onalari, dadalari, ayrimlari hatto buvijonlari bilan yetaklashib kelishibdi. Yaholanki, ko'plab tengdoshlari kabi soya-salqin go'shalarda, oromgozlarda miriqib dam olishsa bo'lardiku... Hammalari tirishqoq, izlanuvchan

o'g'il-qizlar, biror nima o'rganish, aytilgan gaplarni uqish niyatida kelishayotgani yuz-ko'zlaridan sezilib turadi. Ulardagi bu ajoyib hislatni mashg'ulotimizning bu galgi mehmoni «Sog'lom avlod» gazetasining bosh muharriri, taniqli jurnalist Ra'no opa Zaripova ham payqadilar. Ra'no opa yetti yoshdan yetmish yoshgacha

bo'lgan gazetxonlarga mo'ljallangan, yaqinida o'zining «bir yoshi»ni nishonlagan gazetalari haqida, uning rang-barang ruknlari-yu sahifalari to'g'risida hikoya qildilar. Shuningdek, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmudlar haqida eshitganmisiz? Ularning qahramonliklaridan gapirib bering, - deya to'garagimiz a'zolarini «imtihon» ham qildilar. Bolalarning bergan javoblaridan ko'ngillari to'lib, sizlar bizning kelajagimiz, ertangi kunimizsiz. Bizlar faqat oliy o'quv yurtlariga kirish uchungina til o'rganardik. Hozir esa butunlay boshqacha, til bilganga dunyo eshiklari keng ochiq,- dedilar.

Shunday ekan, til o'rganing, kompyuterlar bilimdoni bo'ling. Eshitgan, ko'rgan-bilganlaringizni boshqalarga ham yetkaza bilishni o'rganing. Bu jurnalistlarga xos xislat, deya nasihat ham qildilar. Uzoq yillik jurnalistlik faoliyatlaridan gapirib, bolalarning ko'plab savollariga javob berdilar.

Odatdagidek suhbatimiz she'rxonlikka ulanib ketdi.



O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT QO'MITASI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxonalar manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-2692
Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza
ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08



SENING BAXTING

Mustaqil diyorning aziz farzandi,
Shu Vatan seniki, bu sening baxting.
Ota va onangning bag'rida o'ssang,
Ularning borligi - bu sening baxting.
Taning sog', ko'zlaring nurli, charog'on,
Eling tinch, uying tinch, bu sening baxting.
Kelajaging porloq, imkonlar bisyor,
Maqsadlaring yorqin, bu sening baxting.
Bog'ing bor bulbullar qilguvchi nola,
Zamining serhosil, bu sening baxting.
Yurtingga mehning bor, muhabbating bor,
Barkamol ulg'aysang, bu Vatan baxti!

Nodira ERGASHEVA,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi
43-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi.




Bir kuni quyon tush ko'ribdi:
Tushida ertalab turib, o'rmonga sabzi
tergani chiqibdi. Sabzi terib yursa
oldidan och bo'ri chiqib qolibdi.
Bo'ri quyonga qarab tishlarini
g'ichirlatib: «Ha quyonvoy, bu
yerlarda nega sang'ib yuribsan»,
debdi. Quyon javob qilibdi:

«Bo'ri og'a, qornim
och, bu yerga sabzi

tergani keldim». Bo'ri: «Sening qorning
och bo'lsa, meniki ham och»
debdi. Quyon qo'rqib
qo'cha boshlabdi.

Orqasiga qarasa bo'ri vajohat bilan kelayotganmish. Quyon to'xtabdi va bo'ri tomon yuribdi. Endi bo'ri qochibdi va ichida o'ziga-o'zi debdi: «Shu quyondan qochib yuramanmi, yaxshisi hozir to'xtayman-da, quyoning ustiga tashlanaman». Bo'ri shunday qilibdi, quyoning ustiga endi tashlanaman desa, quyon vahimadan uyg'onib ketibdi.



Oftob chiqibdi, quyon yuz-qo'lini yuvib, nonushta qilish uchun sabzi va yana u-bu narsalar olib kelgani ketibdi. Tushi o'ngidan kelganga o'xshaydi. Uni oldidan tushida ko'rgan bo'ri chiqibdi. Quyon qo'rqib, sabzilarni olib uyi tomon qochibdi. Bo'ri uni ketidan quvlabdi. Quyon eson-omon uyiga yetib kelibdi. Tinch nonushta qilib, qornini to'yg'azib, ko'chaga o'ynagani chiqibdi. Bo'ri esa allaqachon hafsalasi pir bo'lib, uyiga jo'nab ketibdi.

Dilshod USMONOV,
Akmal Ikromov tumanidagi 203-maktabning
4-sinf o'quvchisi.

katta bo'lmagan bu xonadonga borgim kelaveradi. Uning har bir qarich yeri, giyohi, hatto havosi ham men uchun aziz va ardoqli. Buvamnikiga keldim deguncha, bolalik xotiralaram, o'yinqaroq kunlarim bot-bot yodimga tushaveradi...

Dugonalarim bilan chug'urlashib, ko'chani boshimizga ko'tarardik, «Lafta», «O'n besh», «Kartoshka» kabi o'yinlar o'ynab, hecham charchamasdik. Peshin mahali na

SINFDOHLARIM

Mening sinfdoshlarim,
Ahil, inoq bolalar.
Ustozim misli quyosh,
Bizlar gulu lolalar.
Onalarin shod etar,
Yomon baho olmasdan.
Fursatni hech boy bermay,
O'qiylar tolmasdan.

Dilrabo
DO'STQOBILOVA,
118-maktabning
4- «A» sinf o'quvchisi.

kattalarga dam oldirardik, na o'zimiz tinardik. U yerdan haydashsa, bu yerga kelib o'ynayverardik...

Bir voqea hecham yodimdan chiqmaydi: Bir kuni qoq peshinda Nodira ismli dugonam chaqirib qoldi. Kattalarni dam olishayotgani uchun sekingina, oyog'imning uchida yurib chiqib ketdim. Ikkovlon bir bo'lib, ko'chaning boshidan boshlab qizlarni chaqira boshladik. Biz ne mashaqqatlar bilan xuddi o'g'rilikka tushgan odamdek, ohistagina chaqirsagu ular chiqib «o'ynamayman» deb kirib ketishsa, alam qilar ekan odamga. Nima qilishimizni bilmay, o'tgan-ketganlarni tomosha qilib o'tiraverdik.

Gaplashaylik desak, gap ham yo'q. Arqonni ikki kishi o'ynab bo'lmaydi. Aksiga olib koptogimiz ham yorilib qolgan. Bekinmachaq, quvlamachaq ham ko'pchilik bilan. Shunda bir shumlikni o'ylab topdik. Nabi aka degan qo'shnimizning darvozasi qo'ng'irog'ini bosib, o'zimiz tashqariga ochiladigan darvozaning orqasiga berkinib olmoqchi bo'ldik. Bir-birimizni ko'tarib, bir amallab qo'ng'iroqni bosdik-da, o'zimizni panaga oldik. Ichkaridan «kim?» degan ovoz eshitildi. Nabi aka darvozani ochdi-da, hech kim yo'qligini ko'rib, ajablanib, uyga kirib ketdi. Biz esa qo'ng'iroqni yana bosdik. Nabi aka yana chiqdi. Lekin bu gal eshik oldidan shundoqqina qarab, qaytib ketmadi. Vajohatlari buzuq,

bezorilarni tutmay qo'ymayman, deya ahd qilgan ko'rinadi. Biz esa eshik ortida dag'-dag' qaltirab turardik. Nabi aka hamma joyni ko'zdan kechirib bo'lgach, biz turgan joyga keldida, qo'lga tushdilaringmi, degandek qarab qoldi. Nabi aka Nodiraning qo'lidan ushlab oldi. Men esa fursatdan foydalanib, ura qochdim. Uyga kirib, xontaxtaning tagiga bekinib oldim. Negaligini bilmaymanu nuqul biror narsadan qo'rqsam, xontaxtaning tagiga yashirinadigan odatim bor edi.

Nazarimda Nabi aka Nodirani bog'lab qo'yib, meni qidirib kirib keladigandek edi. Buvamga aytib bersalar nima qilaman, degan hadikda edim. Shu alfozda ancha yotdim. Eshikni ohistagina ochib qo'ydim. Ikki ko'zim darvozada. Yeyish-ichishimda ham halovat bo'lmadi.

Hayriyat Nabi aka uyimizga chiqmadi. Ertasi kuni umuman ko'chaga chiqmadim. Oradan ikki kun o'tgach, Nodira chaqirib qoldi. Uning kayfiyati yo'qroq edi. Keyin bilsam, o'sha kuni yolg'iz o'zini tashlab ketganim uchun mendan xafa ekan. Nabi akadan rosa dakki eshitibdi. Yig'lab-yig'lab kechirim so'rabdi. Men esa Nodiradan kechirim so'radim. Shu-shu ikki dugona bunday noo'rin sho'xlik qilmaslikka ahd qildik.

Mashhura QAHHOROVA,
Toshkent tumanidagi
2-maktabning
10-sinf o'quvchisi.

